# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatda 2021 yil yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiy hajmi 11036,3 mlrd.so‘mni yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan 100,5 foizni, shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari hajmi 4500,0 mlrd.so‘mni (95,0 foiz), yalpi chorvachilik mahsulotlari hajmi 6 382,4 mlrd.so‘mni (104,3 foiz), qishloq xo‘jaligida ko‘rsatilgan hizmatlar hajmi 55,8 mlrd. so‘mni (129,2 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 34,6 mlrd. so‘mni (107,0 foiz), ovchilik xo‘jaligida 0,4 mlrd.so‘mni (101,8 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 63,1 mlrd.so‘mni (101,2 foiz) tashkil qildi.



**11 036,3** — **Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. so'm**

01 — **10 938,6** — **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**

02 — **63,1** — **O'rmon xo'jaligi**

03 — **34,6** — **Baliqchilik xo'jaligi**

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) hajmining taqsimlanishi,** foizda
*(2021 yil yanvar-iyun)*

| | *Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlar hajmi* | | *Aholi jon boshiga, (ming co‘m)* |
|---|---|---|---|
| | *mlrd. so‘m* | *2020 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, o‘sish sur’ati % da* | |
| **Buxoro viloyati** | **11 036,3** | **100,5** | **5651,5** |
| Buxoro sh. | 130,3 | 100,2 | 462,1 |
| Kogon sh. | 6,4 | 117,6 | 103,4 |
| *tumanlar* | | | |
| Buxoro | 1 347,8 | 100,0 | 7 951,8 |
| Vobkent | 979,5 | 100,4 | 6 907,9 |
| Jondor | 1 491,7 | 100,0 | 8 427,6 |
| Kogon | 726,2 | 100,5 | 9 111,3 |
| Olot | 851,5 | 100,8 | 8 489,3 |
| Peshko‘ | 996,2 | 100,1 | 7 975,9 |
| Romitan | 866,2 | 101,2 | 6 002,8 |
| Shofirkon | 955,9 | 100,1 | 5 328,5 |
| Qorako‘l | 1 205,7 | 100,8 | 7 284,9 |
| Qorovulbozor | 274,0 | 103,7 | 14 733,7 |
| G‘ijduvon | 1 204,9 | 100,7 | 3 912,0 |

**2021 yil yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘sish sur’atlari**




Xususan, yuqori o‘sish sur’atlari Qorovulbozor (103,7 foiz), Romitan (101,2 foiz), Qorako‘l (100,8 foiz) va Olot (100,8 foiz) tumanlarida kuzatildi. Buxoro (100,0 foiz) va Jondor (100,0 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur’atlar kuzatildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2021 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2020 yil mos davriga nisbatan 100,5 foizni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 95,0 foizni va chorvachilik mahsulotlari 104,3 foizni tashkil qildi.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi,** foizda




**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi,** foizda



2021 yil yanvar-iyun oylarida 10 882,4 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 4 500,0 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 41,4 foizi dehqonchilik, 6 382,4 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 58,6 foizi chorvachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

2021 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda Qorovulbozor, Jondor va Buxoro tumanlarida asosan dehqonchilik sohasining ancha rivojlanganligini ko‘rsatdi. Ushbu tumanlarda jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 62,1-45,2 foizini dehqonchilik mahsulotlari tashkil etadi. Shuningdek, Kogon, Olot, Qorako‘l, Romitan tumanlarida asosan chorvachilik sohasining ancha rivojlanganligini kuzatish mumkin. Ushbu hududlarda jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 70,9 - 63,0 foizini chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi.

**Ishlab chiqarilgan qishlok xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,** foiz




Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishlok xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 81,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 17,0 foizi fermer xo‘jaliklariga, 1,5 foizi qishloq xo‘jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishlok xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi hududlar kesimida,** foizda




Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaxarlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

2021 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qorovulbozor (56,2 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Olot (91,2 foizi) tumanlari va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Buxoro (4,3 foizi) shahrida qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Olot (8,0 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor (41,0 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Vobkent (0,4 foizi) tumanlarida qayd etildi.



## Dehqonchilik

2021 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarning hajmi 4 500,0 mlrd.so‘mni yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan 95,0 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 41,4 foizni tashkil kildi.

Viloyatda 2021 yil 1 iyul holatida davlat xirmoniga 126,1 ming tonna g‘alla topshirildi. Shartnomaviy reja 100,9 foizga uddalandi. Bundan tashqari kelgusi yil hosili uchun 13,6 ming tonna urug‘lik don ham tayyorlandi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, joriy yilda barcha toifadagi xo‘jaliklar 237302 gektar maydonda dehqonchilik bilan shug‘ullanib, shundan jami don 71173 gektarni, shu jumladan, boshoqli don 69376 gektarni, shundan bug‘doy 68905 gektarni, makkajo‘xori don uchun 728 gektarni, dukkakli don ekinlari 758 gektarni, texnik ekinlar jami 101224 gektarni, shu jumladan, g‘o‘za maydoni 98716 gektar, moyli ekinlar 38 gektar, kartoshka 6377 gektarni, sabzavotlar jami 19919 gektarni, poliz 3750 gektarni, sabzavot ekini urug‘zorlari 26 gektarni, ozuqa ekinlari 34833 gektarni, bundan tashqari mevalar va rezavorlar maydoni 14698 gektarni hamda tokzorlar 9072 gektarni tashkil etdi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaliklarining salmog‘i yuqori bo‘lmoqda, jumladan jami yetishtirilgan kartoshkaning 94,4 foizi, sabzavotning 88,4 foizi, poliz mahsulotlarining 44,3 foizi, uzumning 64,4 foizi va mevaning 73,8 foizi ular hissasiga to‘g‘ri keldi.

## Hosilni yig‘ib olish



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida jami don 354 087 tonna (2020 yil shu davriga nisbatan 1,4 foizga ko‘p), shu jumladan, boshoqli don 353 870 tonna (1,3 foizga ko‘p), shundan bug‘doy 353 126 tonna (1,1 foizga ko‘p). Kartoshka 151 603 tonna (4,8 foizga ko‘p), sabzavot 254 592 tonna (3,9 foizga ko‘p), poliz 20 022 tonna (9,0 foizga ko‘p), meva 107 884 tonna uzum 5 178 tonna (24,7 foizga ko‘p) yig‘ib olindi.

**Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining ulushi, % hisobida**



**2021 yilning yanvar-iyunida xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | *Fermer xo'jaliklari* | | *Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari* | | *Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *ming tonna* | *o'sish sur'ati, foizda* | *ming tonna* | *o'sish sur'ati, foizda* | *ming tonna* | *o'sish sur'ati, foizda* |
| Don | 298,5 | 101,8 | 45,1 | 95,4 | 10,5 | 120,1 |
| Kartoshka | 8,5 | 148,3 | 143,1 | 103,0 | 0,03 | 130,0 |
| Sabzavotlar | 25,8 | 111,4 | 225,2 | 104,0 | 3,6 | 68,9 |
| Poliz | 10,8 | 115,3 | 8,9 | 101,4 | 0,3 | 145,6 |
| Mevalar va rezavorlar | 28,2 | 56,4 | 79,6 | 84,5 | 0,1 | 12,4 |
| Uzum | 1,8 | 2,3 m. | 3,4 | 100,2 | 0,02 | 53,5 |

**2021 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Don** *(tonna)*




**Kartoshka** *( tonna)*



**Sabzavotlar** *(tonna)*




**Poliz** *(tonna)*




**Mevalar va rezavorlar** *(tonna)*




**Uzum** *(tonna)*



## Chorvachilik



2021 yil yanvar - iyun oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6382,4 mlrd.so‘mni yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan 104,3 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 58,6 foizni tashkil etdi.

2021 yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 124804 tonna go‘sht (2020 yil yanvar - iyunga nisbatan 3,7 foizga ko‘p), 463,1 ming tonna sut (6,5 foizga ko‘p), 207,9 mln.dona tuxum (5,6 foizga ko‘p), 2332 tonna jun (4,3 foizga ko‘p), 372,1 ming dona qorako‘l teri (o‘tgan yilga nisbatan 4,7 foizga ko‘p) ishlab chiqarildi.

**2021 yil yanvar-iyun oylarida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | *Barcha toifadagi xo‘jaliklar* | | *shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *fermer xo‘jaliklari* | | *dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari* | | *qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *miq-dori* | *o‘sish sur’ati, foiz* | *miq-dori* | *o‘sish sur’ati, foiz* | *miq-dori* | *o‘sish sur’ati, foiz* | *miq-dori* | *o‘sish sur’ati, foiz* |
| Go‘sht tirik vaznda, *tonna* | 124 804 | 103,7 | 5 892 | 115,7 | 117 416 | 103,0 | 1 496 | 117,0 |
| Sut, *tonna* | 463 113 | 106,5 | 27 795 | 117,2 | 434 533 | 105,9 | 785 | 124,4 |
| Tuxum, *ming dona* | 207 906 | 105,6 | 38 979 | 146,3 | 131 217 | 102,2 | 37 710 | 90,4 |
| Jun, *tonna* | 2 332 | 104,3 | 270 | 86,7 | 1 965 | 106,4 | 97 | 124,4 |
| Qorako‘l teri dona | 372 133 | 104,7 | 34 499 | 109,1 | 321 856 | 103,3 | 15 778 | 128,5 |

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taxlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go‘shtning umumiy hajmidan 94,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 93,8 foizi, tuxumning 63,1 foizi, junning 84,3 foizi, qorako‘l terining 86,5 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chikarishda xo‘jalik toifalarining ulushi**




**2021 yil 1 iyul holatiga xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *Barcha toifadagi xo‘jaliklar* | | *shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *fermer xo‘jaliklari* | | *dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *ming bosh* | *o‘sish sur’ati, foiz* | *ming bosh* | *o‘sish sur’ati, foiz* | *ming bosh* | *o‘sish sur’ati, foiz* | *ming bosh* | *o‘sish sur’ati, foiz* |
| Yirik shoxli qoramollar | 1 245,2 | 102,6 | 77,8 | 111,1 | 1 153,3 | 102,0 | 14,1 | 106,8 |
| *shu shumladan* sigirlar | 405,8 | 103,2 | 26,1 | 118,6 | 376,5 | 102,1 | 3,2 | 133,3 |
| Qo‘y va echkilar | 2 216,2 | 102,6 | 286,7 | 113,7 | 1 774,6 | 101,5 | 154,9 | 97,3 |
| Parrandalar | 5 344,4 | 112,9 | 1 016,0 | 118,6 | 3 021,8 | 107,6 | 1 306,6 | 122,4 |

## Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini hududlar kesimida taqsimlanishi

**Go‘sht** *(ming t.)*




**Sut** *(ming t.)*




**Tuxum** *(mln.dona)*




**Ovlangan baliqchilik** *(tonna)*



**2021 yil 1 iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *ming bosh* | *o'sish sur'ati, foiz* |
|---|---|---|
| **Yirik shoxli qoramol** | **1 245,2** | **102,6** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 77,8 | 111,1 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 1 153,3 | 102,0 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 14,1 | 106,8 |
| ulardan sigirlar | 405,8 | 103,2 |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | **26,1** | **118,6** |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 376,5 | 102,1 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 3,2 | 133,3 |
| **Qo'y va echkilar** | **2 216,2** | **102,6** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 286,7 | 113,7 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 1 774,6 | 101,5 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 154,9 | 97,3 |
| **Otlar** | **6,5** | **112,9** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 2,0 | 126,6 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 3,7 | 99,6 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 0,8 | 180,4 |
| **Parrandalar** | **5 344,4** | **112,9** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 1 016,0 | 118,6 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 3 021,8 | 107,6 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1 306,6 | 122,4 |

**2021 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

| | *Miqdori* | *o‘sish sur’ati, foiz* |
|---|---|---|
| **Go‘sht (tirik vaznda),** *ming tn.* | **124,8** | **103,7** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 5,9 | 115,7 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 117,4 | 103,0 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1,5 | 117,0 |
| **Sut,** ***ming tn.*** | **463,1** | **106,5** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 27,8 | 117,2 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 434,5 | 105,9 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 0,8 | 124,4 |
| **Tuxum,** ***mln. dona*** | **207,9** | **105,6** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 39,0 | 146,3 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 131,2 | 102,2 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 37,7 | 90,4 |

**2021 yil yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

| | *2020 yil* | | *2021 yil* | | *o‘sish sur’ati,foiz* |
|---|---|---|---|---|---|
| | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz* | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz* | |
| Go‘sht, tirik vazndа | 5 093 | 4,2 | 5 892 | 4,7 | 115,7 |
| Sut | 23 707 | 5,5 | 27 795 | 6,0 | 117,2 |
| Tuxum, ming dona | 26 646 | 13,5 | 38 979 | 18,7 | 146,3 |
| Jun | 311 | 13,9 | 270 | 11,6 | 86,7 |
| Qorako‘l teri, *dona* | 31 621 | 8,9 | 34 499 | 9,3 | 109,1 |
| Pilla | 938,4 | 54,2 | 861,1 | 36,1 | 91,8 |
| Ovlangan baliq | 530,4 | 28,7 | 670 | 33,5 | 126,3 |
| Don jami | 293 314 | 84,0 | 298 482 | 84,3 | 101,8 |
| Kartoshka | 5 693 | 3,9 | 8 442 | 5,6 | 148,3 |
| Sabzavot | 23 168 | 9,5 | 25 821 | 10,1 | 111,4 |
| Poliz | 9 421 | 51,3 | 10 865 | 54,3 | 115,3 |
| Mevalar | 50 023 | 34,6 | 28 219 | 26,2 | 56,4 |
| Uzum | 779 | 18,8 | 1 819 | 35,1 | 2,3 m. |